



UDK: 614

Maftuna AZIMOVA,
Qo‘qon universiteti o‘qituvchisi
E-mail: maftunaazimova67@gmail.com

Qo‘qon davlat universiteti dotsenti, PhD M. Temirova taqrizi asosida

FROM THE HISTORY OF THE MEDICAL SYSTEM OF NAMANGAN REGION

Annotation

This article analyzes the issues related to the formation of the medical system in the Namangan region. In particular, the state of public health protection during the years of Soviet rule, problems and shortcomings in the material and technical base of the system, as well as the education of doctors working in the field are analyzed on a scientific basis.

Key words: Health, medical service, presidential decrees, law, regulatory documents, lifestyle, sanitary control, medical institution, medical service, practicing doctor.

ИЗ ИСТОРИИ МЕДИЦИНСКОЙ СИСТЕМЫ НАМАНГАНСКОЙ ОБЛАСТИ

Аннотация

В статье анализируются вопросы, связанные со становлением системы здравоохранения Наманганской области. В частности, на научной основе анализируются состояние здравоохранения в годы советской власти, проблемы и недостатки в материально-технической базе системы, а также в образовании врачей, работающих в этой области.

Ключевые слова: Здравоохранение, медицинская служба, указы Президента, закон, нормативные документы, образ жизни, санитарный контроль, лечебное учреждение, медицинская служба, практикующий врач.

NAMANGAN VILOYATI TIBBIYOT TIZIMI TARIXIDAN

Annotatsiya

Mazkur maqolada Namangan viloyatida tibbiyot tizimining vujudga kelishi borasidagi masalalar tahlil etilgan. Xususan, sovetlar hukumronligi yillarida aholi salomatligini muhofaza qilish ishlarining holati, tizimning moddiy-tehnika bazasidagi muammo va kamchiliklar, hamda sohada faoliyat olib borgan shifokorlarning ma'lumoti to'g'risidagi masalalar ilmiy asosda tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: Salomatlik, tibbiy xizmat, prezident farmonlari, qonun, normativ hujjatlar, turmush tarzi, sanitariya nazorati, tibbiyot muassasasi, tibbiy xizmat, amaliyotchi shifokor.

Kirish. Inson salomatligini yanada mustahkamlash, sog'lom insonlar safini kengaytirish, onalar va bolalar sog'ligini muhofaza qilish, sog'lom turmush tarzini keng ommaga o'rtasida shakllantirish, oilada tibbiy madaniyatni oshirish, har bir shaxsning salomatligi o'z qo'lida ekanini aholi o'rtasida keng targ'ib qilish, sog'lom jamiyatni tashkil etish borasidagi ishlarni mustaqilligimizning dastlabki yillaridan boshlab, davlatimiz tomonidan amalga oshirilib kelindi.

Dastlabki davrlardan boshlab mamlakatimizda ushbu sohani rivojlantirish va mustahkamlash maqsadida qonun hujjatlari qabul qildi [1]. Shuningdek aholi salomatligini tiklash hamda mustahkamlash yo'lida mustaqillikning dastlabki davrlaridayoq mamlakatda sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish zarurati paydo bo'ldi va ushbu sohada O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti Farmoni qabul qilindi. [2]

O'zbekistondagi ushbu jarayonlardagi yangicha tamo-yillarni ishlab chiqish hamda mamlakatimizning jahon talablariga javob bera oladigan barcha sohalarni rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7- fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish buyicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida" PF-4947-son Farmoni qabul qilindi. Harakatlar strategiyasida aholini ijtimoiy himoya qilish va sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-

qizlarni ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilandi [3]. Shuningdek 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida Ko'rsatilayotgan tibbiy xizmatlarni aholiga yanada yaqinlashtirish va qulayligini oshirish maqsadida respublika hududlarida tibbiyot klasterlarini tashkil etish maqsadida Namangan, Farg'ona, Sirdaryo, Qashqadaryo, Navoiy, Toshkent viloyatlari va Toshkent shahrida tibbiyot klasterlarini tashkil etish maqsadlari amalga oshirila boshlandi [4].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Hozirgi davrda O'zbekiston sog'liqni saqlash tizimining turli sohalarida yangi tibbiy xizmat turlarini joriy qilish va tibbiy xizmat ko'rsatishni turli shakllarini rivojlantirishni moliyaviy ta'minoti bilan bog'liq muammolar viloyatlar miqyosida eng kam o'rganilgan ilmiy muammolardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston sog'liqni saqlash tizimini mustaqillik yillaridagi holatini chet el olimlari Zadorjnaya R.A., Berend Rechel., Sebastyan Peruz [5] va boshqalar tomonidan o'rganilgan. Ushbu olimlarning O'zbekiston Respublikasida sog'liqni saqlash tizimidagi davlatimiz tomonidan olib borilgan tizimli islohotlar, mustaqillik yillaridan boshlab keng qamrovda amalga oshirilayotgan aholi salomatligi uchun shifokorlar tomonidan amalga oshirilgan chora-tadbirlar, mamlakat kadrlar tayyorlash

tizimini yo'lga qo'yilishi hamda undagi mavjud muammolar, shuningdek O'zbekiston sog'liqni saqlash tizimining MDX tarkibidagi davlatlar orasidagi o'rni va uning ko'rsatkichlaridagi farqlar, holatlari o'rganilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. O'zbekiston Respublikasi-dagi sog'liqni saqlash tizimidagi islohotlari yo'nalishlarini, shu jumladan, tibbiy xizmat ko'rsatish sohalari moliyalashtirishda davlat ishtirokini ayrim ilmiy masalalari Jumanov S., Zaynalov J., Malikov T., Sultonova A., Iskandarova Sh., Srojiddinova Z. [6] lar tomonidan o'rganib kelinmoqda. Ammo, Farg'ona viloyati tibbiyot sohalari zamon talablari doirasida tiklanishi va rivojlanishini, tizimni rivojlanishi jarayonidagi amalga oshirilgan islohotlar, soha kadrlari bilan ta'minlanish darajalari, shuningdek moliyaviy ta'minotning o'ziga xos jihatlari hali to'la o'rganilmagan. Bu esa ushbu masalaga bog'liq holatlarni dolzarbligidan dalolat beradi va belgilangan ilmiy izlanish mavzusining kun tartibida o'ta dolzarb muammo sifatida ko'tarilishiga asos bo'ldi.

Tahlil va natijalar. Sovet hukumatining o'lkadagi dastlabki hukumronlik davrlarida Namangan uezdida aholining ijtimoiy, iqtisodiy turmushi ancha past darajada edi. Xususan aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish ham qoniqsiz holatda bo'lgan. Namanganda 1921 yilda bor yo'g'i 1 ta ambulatoriya va 3 ta vrach faoliyat olib borgan [7]. Bu esa o'z navbatida aholi salomatligini muhofaza qilish u yoqda tursin, tez tibbiy yordam ko'rsatish uchun ham yrtarli emas edi. Mazkur muammoni hal etish maqsadida 1936 yilda viloyatda meditsina bilim yurti tashkil etilgachgina, o'rta malakali hamshiralari yetkazib bera boshlandi.

Namangan viloyati tashkil topgan 1941 yili viloyat bo'yicha sog'liqni saqlash sohasida jami 91 nafar shifokor va 500 ga yaqin hamshiralari faoliyat yuritgan. 1941 yilda viloyatda faqatgina bitta "Tez yordam" mashinasi bor edi xalos. Shu sababli bemorlarga shifokorlar izvoshlarda xizmat ko'rsatgan. Dorixonalar soni 12 tani tashkil etgan. Kasalxonalarda 800 ta o'rin bo'lib, ular moslashtirilmagan binolarda joylashgan, sanitariya gigena holati haqida aytmasa ham bo'laverar edi [8].

Urushdan keyingi yillarda ham respublikadagi iqtisodiy tanglik sababli aholiga tibbiyot xizmatini ko'rsatish holati past darajada qoldi. 1951 yil viloyatda 197 vrach bo'lib, bulardan 74 tasi qishloqda ishlar edi. 1950-yillarda aholining sil kasalligiga chalinish halati ko'paydi. Bunga asosiy sabab kasallikka qarshi tadbirlarning yetarli darajada olib borilmaganligi, aholining ijtimoiy turmush sharoitining og'ir ahvolda ekanligi edi. Viloyatda bu yillarda silga qarshi butun tadbirlar faqat bitta sil dispanseri orqali olib borilganligi sababli ijobiy natija bermadi. 1950 yillarda viloyatda sanitariya talabiga javob bera oladigan faqat 1 tagina hammom bor edi xolos. XX asr 50- yillarida viloyatda ichak kasalliklariga yo'liqish ko'paydi. Buning sababi sanitariya holatining aholi yashaydigan punktlarda yaxshi emasligi, meditsina xizmatining qoniqarli yo'lga qo'yilmagani, viloyatda vodoprovodning bo'lmaganligi, Namangan shahrida aholining zich bo'lib yashashi, ovqatlanish korxonalaridagi tozalikning yaxshi emasligi edi [9].

1951 yilga kelib, Namangan viloyatida bolalar o'rtasida kasallanish ortib ketdi.. Bu ayniqsa, Namangan shahrida yuqori darajada edi. Qishloq soveti va jamoa xo'jaliklari huzuridagi ko'pchilik tibbiyot binolari talabga javob bermas va sifatli tibbiyot xizmati ko'rsatishni ta'minlay olmas edi. Hatto ba'zi joylarda, masalan: Pop tuman Chodak qishloq sovetidagi meditsina punktida, Uychi tumanidagi Andrev nomli va Kaganovich nomli kol-

xozlarda joy yetishmasligi yoki tibbiy ko'rik o'tkazish uchun binoning yo'qligi sababli feldsherlar o'zi yashab turgan uyida kasalni qabul qilardi [10]. Bu holat keying davrlarda ham o'zgarishsiz qoldi. Xususan, viloyat kasalxonasiga 1955 yilda shifokor nazorati ostida davolanishi zarur bo'lgan mingdan ortiq kasallar joy yetishmasligi sababli qabul qilinmagan. Kasalxonada bemorlar uchun joy yetishmasligi bois, kasallar polda, yo'laklarda yotishga majbur bo'lgan [11].

Ikkinchi jahon urushi oqibatida yo'qotilgan iqtisodiyotni tiklash maqsadida Farg'ona vodiysi paxta monopoliyasining muhim markaziga aylantirilishi ekologik vaziyatning, buning oqibatida aholi sog'lig'ining yomonlashuviga olib keldi. Aholi gavjum yashaydigan joylarda turli xil zavodlarning qurilishi ortib bordi. Masalan, 1958 yil viloyatdagi har bir paxta zavodi 1 sutkada 7,6 tonna chang chiqarganligi aniqlangan edi [12].

Agar sog'liqni saqlash ishlariga viloyat bo'yicha 1969 yil 13 mln. 222 ming so'm miqdorida budget mablag'i ajratilgan bo'lsa, 1970 yilda 19 mln. 388 ming so'm yoki 1968 yildagiga nisbatan 6 mln. so'mdan ziyodroq mablag' ajratildi. Aholi jon boshiga meditsina xizmati ko'rsatish uchun sarflangan mablag' 1968 yilda 16 so'm 89 tiyindanga to'g'ri kelgan bo'lsa, 1970 yilda 22 so'mdanni tashkil qildi [13].

1970 yil viloyat aholisi soniga nisbatan hisoblanganda shifoxonalardagi o'rinlar butun Ittifoqdagi ko'rsatkichlardan kam edi. Respublikada 10 ming aholiga 101 ta o'rin to'g'ri kelgan holda, viloyatda u 88,3 tani tashkil etgan. Bu ko'rsatkichlar Uychi tumanida 64,3 ta, Chust tumanida 56 tani tashkil etardi. Kasalxonalaridagi o'rinlar yangi qurilgan shifoxonalar hisobiga atigi 35% ga to'g'ri keldi. Natijada har bir bemorga 6,5 kvadrat metr joy bo'lishi o'mniga 2-2,5 kvadrat metrdan joy to'g'ri keldi. 1970 yil viloyatdagi har 10 ming aholiga 10 vrach, qariyb 50 o'rta meditsina ma'lumotli mutaxassis xizmat qildi. Shu davrda respublikada esa 10 ming aholiga 18 vrach to'g'ri keldi. Viloyat normaga nisbatan 66% vrachlar bilan ta'minlangan bo'lsada, tumanlarda ko'rsatkich undan ham past edi. Masalan, Namangan, Yangiqo'rg'on, Pop tumanlarida 50-55% ni tashkil etdi [14].

Viloyatda kasalxonalarni oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashda ham muammolar bo'lib, faqat 1974 yilda viloyatdagi sog'liqni saqlash muassasalari belgilangan normaga nisbatan qariyb 84 ming litr sut, 11 ming kg qaymoq, 20 ming kg tvorog, 472 ming dona tuxum, 80 tonna baliq, 9 ming tonna meva va 11,5 tonna go'sht va ko'plab sabzavot mahsulotlari kam olganlar. Pop tumanida esa normaga nisbatan 40% go'sht, 84% baliq, 84% tuxum, 5% sut, 95% tvorog, 61% qaymoq kam olingan. Bunday holatni Uchqo'rg'on, Norin, Kosonsoy tumanlarida hamuchratish mumkin [15]. Bu holat tabiiyki, bemorlarni salomatligini tiklash ishiga salbiy ta'sir ko'rsatar edi.

XX asr 80- yillarning o'rtalarida axolining ijtimoiy turmush tarzini yaxshilash bo'yicha qator ijobiy ishlar ham amalga oshirildi. Kasalxonalaridagi davolanish o'rinlar soni ko'paydi, yangi meditsina bilim yurtlari ochildi. Agar 1970 yilda Namangan viloyatida 98 ta shifoxona faoliyat olib borgan bo'lsa, 1985 yilga kelib shifoxonalar soni 108 taga yetdi [16].

Mustaqillik yillariga kelib esa, sog'liqni saqlash sohasini rivojlantirish uchun alohida ahamiyat qaratildi. 1991 yilda viloyatda 19110 o'ringa ega bo'lgan 120 ta kasalxona, 12 ta sanatoriya, 45 ta qishloq uchastka kasalxonasi, 470 ta feldsher-akusherlik punktlari mavjud edi.

Dorixonalar soni esa 157 taga yetdi. Viloyatda respublika aholisining salomatligini tiklash uchun "Chortoq", "Paxtaliko'l", "Parda Tursun" sanatoriylari qayta tashkil etildi. 1991 yil sog'liqni saqlash tarmog'iga ajratilgan budjet-mablag' 14,5 mln. so'mni tashkil etdi. Har bir kishiga yetadigan mablag' 96 so'mdanga to'g'ri keldi [17].

1994 yilga kelib viloyatda 16 ta "Tez yordam" stansiyasi faoliyat yuritdi [18]. Jumladan, 1992-1994 yillarda Go'zal mavzesida ko'p tarmoqli bolalar shifoxonasi, ona va bola birga bo'lishiga mo'ljallangan tug'ruqxona, ayollar maslahatxonasi, Uychi, Uchqo'rg'on, Chortoq tumanlarida eng zamonaviy tibbiyot jihozlari, asbob-uskunalar bilan ta'minlangan poliklinika, tibbiyot punktlari, Chernobil halokati qatnashchilari uchun sanatoriya, Namangan shahrida yurak xastaliklarini davolovchi kardiologiya markazi barpo etildi.

Namangan viloyatida mustaqillikning dastlabki 10 yilligi mobaynida 104 ta qishloq shifokorlik punktlari barpo etildi, 41 ta qishloq shifokorlik ambulatoriyasi va feldsher-akusherlik punktlari qishloq shifokorlik punktlariga aylantirildi. Shu davrda 1505 o'rinli kasalxonaga, bir smenada 43,7 ming bemorni qabul qiluvchi poliklinikalar qurib bitkazildi, shoshilinch tibbiy yordam markazi, viloyat ko'p tarmoqli kasalxonasi, o'sma kasalliklar, Namangan shahar onalar va bolalar fizioterapevtik, yuqumli kasalliklar kasalxonasi foydalanishga topshirildi. Ular zamonaviy tibbiyot apparatlari, asbob-uskunalar bilan jihozlandi. Namanganda Semashko nomidagi respublika fizioterapevtik ilmiy tadqiqot instituti, respublika akusherlik va ginekologiya ilmiy tadqiqot instituti hamda respublika salomatlik institutlarining viloyat filiallari,

nevrologiya, endokrinologiya va urologiya markazlari faoliyat ko'rsatmoqda [19]. Bu yerlarda Farg'ona vodiysidan kelgan ko'plab bemorlar yurak, qon-tomir, harakat-tayanch organlari va asab xastaliklari bo'yicha shifo topmoqdalar.

2001 yil fevralda Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi Namangan filialiga Germaniyaning "Dina dentomed" firmasi bilan tuzilgan shartnomaga binoan 850 ming AQSH dollariga teng tibbiyot uskunalari keltirildi. Ilmiy markazda 9 yo'nalish bo'yicha ilmiy ishlar olib borilib, 131 nafar malakali vrach, 320 nafar hamshira mehnat qildi [20].

Keyingi yillarda tibbiyot muassasalari soni yanada ko'payib, zamonaviy uskunalar bilan jihozlandi. 2011 yilda viloyatda 4668 nafar vrach, 22630 ta o'rta tibbiyot xodimlari faoliyat yuritdi.

Xulosa va takliflar. Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, viloyatda sog'liqni saqlash tizimi uzoq va ziddiyatli tarixiy yo'lni bosib o'tdi. Istiqloq yillarida aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish borasida keng ko'lami amaliy ishlar amalga oshirildi.

Tadqiqot natijasida quydagi takliflarni berish mumkin:

1. Tibbiyot hodimlarining huquqlari majburiyatlari qonun doirasida yanada mustahkamlaniga oid islohoatlarning chuqurlashtilishi soha faoliyatini yanada takomillashuviga xizmat qiladi.

2. Soha hodimlarini moddiy va ma'naviy rag'batlantirishning huquqiy asoslarini yaratilishi ham o'zining ijobiy natijasini beradi.

ADABIYOTLAR

- 1996-yil 29-avgustda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasida fuqarolarning sog'ligini saqlash to'g'risida»gi Qonun
- 1998-yil 10-noyabrda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish Davlat dasturi to'g'risida»gi 2107-son Prezident Farmoni
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida» PF 4947-son Farmoni.
- 2022-2026 -yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi PF-60-son Farmoni.
- Задоржная Р.А. и соавт. – Охрана здоровья населения Узбекистана (обзор). –Москва. 1991. –С. 225; Беренд Р. Системы здравоохранения; время перемен // Европейская обсерватория по системам и политике здравоохранения. Health Systems in Transition, 2007. –С. 210; Себастьян Перуз. Реформа здравоохранения в Узбекистане: Какая роль отведена международному сообществу // Программа по Центральной Азии, IERES, Университет Джорджа Вашингтона. –Америка. 2015.
- Джуманов С.А. Из истории деятельности сельских врачебных пунктов Узбекистана // Молодой ученый. 2015. - № 8 (88). –С.775-777; Iskandarova Sh.T, Karieva M.T. O'zbekiston Respublikasida sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish (talabalar uchun metodik qo'llanma) Toshkent – 2006; Sultonova A.O'. Sog'liqni saqlashni bozor munosabatlari orqali tartibga solishning xalqaro amaliyoti: i.f.n. ... diss avtoreferati. – Toshkent: TDIU. 2001
- ЎЗР МДА, Р-40– фонд, 1– рўйхат, 190– иш, 1416– варақнинг орқа томони.
- Мадатов А. Халқи соғ-омон юртнинг заволи йўқ // Наманган ҳақиқати.–1991.–27 март.
- НВДА, 275– фонд, 1– рўйхат, 772– иш, 42–47– варақлар.
- НВДА, 275– фонд, 1– рўйхат, 772– иш, 45– варақ.
- НВДА, 275– фонд, 1– рўйхат, 1116– иш, 46– варақ.
- НВДА, 275– фонд, 1– рўйхат, 1518– иш, 31– варақ.
- НВДА, 275– фонд, 6– рўйхат, 1853– иш, 14– варақ.
- НВДА, 275– фонд, 6– рўйхат, 1853– иш, 7–8– варақлар.
- НВДА, 275– фонд, 6– рўйхат, 2597– иш, 44,145– варақлар.
- Абдуллаев О. Наманган вилояти.–Наманган, 1995..142.
- Мадатов А. Халқи соғ-омон юртнинг заволи йўқ // Наманган ҳақиқати.–1991.–27 март.
- Абдуллаев О. Наманган вилояти ..Б.144.
- Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. 6–том. – Т., 2003. – С. 253.
- Қувончили ўзгаришлар // Наманган ҳақиқати.–2001.– 10 февраль.